

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

LINGVISTIKA

2024 Vol. 2 (1)

www.navoiy-uni.uz

www.uzlc.navoiy-uni.uz

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Bosh muharrir:	Hamidulla Dadaboyev
Bosh muharrir o'rinbosari:	Zulxumor Xolmanova
Mas'ul kotib:	Dilafroz Muhammadiyeva

Tahrir hay'ati

Baxtiyor Abdushukurov, Samixon Ashirboyev, Sulton Normamatov, Munavvara Qurbonova, Muhayyo Hakimova, Dilarabo Baxronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmonova, Marhabo Umurzoqova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rixsiyeva, Iqbol O'razova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Xolmurodova, Nodir Jo'raqo'ziyev.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali – lingvistika, tarix, adabiyot, tarjimashunoslik, san'at, etnografiya, falsafa, antropologiya va ijtimoiy tadqiqotlarni o'rganish kabi sohalarni qamrab olgan akademik jurnal.

Jurnalning maqsadi – ko'rsatilgan sohalarga oid dolzarb mavzulardagi bahs-munozaraga undaydigan, yangi, innovatsion g'oyalarga boy, o'z konsepsiyasiga ega bo'lgan tadqiqotlarni nashr etishdir.

Ingliz, rus va o'zbek tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi. Iqtisodiy tahlillar hamda siyosatga oid maqolalar e'lon qilinmaydi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"Lingvistika" Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" jurnalining tilshunoslik yo'nalishidagi seriyasi bo'lib, yilda to'rt marta e'lon qilinadi. "Lingvistika" seriyasida professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajyor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning lingvistika yo'nalishidagi ilmiy maqolalari nashr etiladi.

"Lingvistika" seriyasi 2021-yil mart oyidan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature

Editor-in-Chief:	Hamidulla Dadaboev
Deputy Editor in Chief:	Zulkhumor Kholmanova
Executive secretary:	Dilafruz Muhammadiyeva

Editorial Committee

Bakhtiyor Abdushukurov, Samikhon Ashirbayev, Sultan Normamatov, Munavvara Kurbanova, Muhayyo Hakimova, Dilrabo Bakhronova, Nodira Alavutdinova, Muqaddas Abdurahmanova, Marhabo Umurzakova, Manzura Shamsiyeva, Zilola Shukurova, Gavhar Komilova, Kamola Rikhsiyeva, Iqbol Urazova, Muhabbat Madaminova, Rohila Abdullayeva, Saodat Israilova, Mushtariy Kholmuradova, Nadir Jorakoziyev.

Journal information

“Uzbekistan: Language and Culture” is an academic journal that publishes works in the field of linguistics, history, literature, translation studies, arts, ethnography, philosophy, anthropology and social studies.

The purpose of the journal is to publish the results of the latest research that are rich in new, innovative ideas and has its own concept, which stimulates debate on topical issues in these areas.

The language of articles can be English, Russian and Uzbek. Other Turkic languages are also welcome. We do not publish economic analyses or political articles.

In addition to research articles, the journal announces book and literary work reviews, conference reports and research project results. The authors' ideas may differ from those of the editors'.

“**Linguistics**” is a linguistic series of the journal “Uzbekistan: Language and Culture” which in the list of scientific publications of the High Attestation Commission, published four times a year. The “Linguistics” series publishes linguistic articles by professors, doctoral students, trainee researchers, independent researchers, and masters.

The “Linguistics” series was launched in March 2021.

Alisher Navoi Tashkent State University of the Uzbek Language and Literature.

103, Yusuf Khos Hojib, Yakkasaray, Tashkent, Uzbekistan.

Email: uzlangcult@gmail.com
Website: www.linguistics.tsuull.uz

Mundarija

Lingvistika

Shuhrat Hayitov

Bobur asarlarining filologik tadqiqi.....6

Kamola Rixsiyeva

Qa= asosli lingvistik birliklarning semantik to'r asosidagi tahlili19

O'razova Iqbol

Eski o'zbek tilidagi "holat" semali frazemalar tahlili (XIV asrning II yarmi manbalari asosida)28

Mamarajabova Iroda

Eski o'zbek turkiy tildagi vaqt konseptini ifodalovchi leksemalar taraqqiyoti42

Ma'suma Mo'minova

Suv komponentli frazemalarda milliy-madaniy belgilar ifodasi57

Israilova Saodat Turapovna, Dilnoza Jumanova

Diskurs va uning ilmiy talqini67

Zahro Abruyeva

Ijtimoiy muloqotga xos ayrim murojaat shakllarining lingvokognitiv tahlili75

Shaxlo Baxodirova

"O'tgan kunlar" romanidagi lakunar birliklar88

Zarnigor Davronova

Badiiy matnda antroponim va unga yondosh tushunchalarning lingvistik xususiyatlari (Abdulla Qodiriy ijodi asosida)100

Zarifa O'rinova

Aforizmlar – intertekstual birlik sifatida113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Tezauruslardagi shaxs otlarining paradigmaticasi125

Mirzayeva Go'zal

Dunyo va turk tilshunosligidagi neyrolingvistik tadqiqotlar xususida132

Azizova Nilufar

"Devoni lug'otit turk" dagi "oziq-ovqat" semali leksik birliklarni semantik maydon asosida tadqiq etish142

Content

Linguistics

Shukhrat Khaitov

A philologik study of Babur's works6

Kamola Rixsiyeva

Semantic web-based analysis of qa= based linguistic units19

Iqbol Urazova

Analysis of phrases with the term "state" in the old uzbek language
(Based on the sources of the second half of the 14th century)28

Mamarajabova Iroda

Development of lexemes with the concept of time in the straotürkic
language42

Ma'suma Mo'minova

Expression of national – cultural signs in phrases with a water
component57

Israilova Saodat Turapovna, Jumanova Dilnoza

Discourse and its scientific interpretation67

Zakhro Abrueva

Linguistic-cognitive analysis of social communication forms of
address75

Shaxlo Baxodirova

Lacunar units in the novel "O'tgan kunlar"88

Zarnigor Davronova

Linguistic features of anthroponym and related concepts in literary text
(based on the works of Abdullah Qadiri)100

Zarifa O'rinova

Aphorisms – as an intertextual unit113

Saodat Israilova, Gulnoza Rayhonova

Paradigmatics of personal nouns in thesauruses125

Go'zal Mirzayeva

About neurolinguistic research in world and Turkish linguistics132

Nilufar Azizova

Studying the lexical units of "food" in the "Devoni lugotit turk" based on
the semantic field142

LINGVISTIKA

Bobur asarlarining filologik tadqiqiShuhrat Hayitov¹**Annotatsiya**

Ushbu maqolada turkiy xalqlar adabiyotida Bobur hayoti va ijodining ilmiy tadqiq etilish jarayoni, ayniqsa, shoir asarlarining turkiy tillardagi tarjimalari, ularning filologik aspektdagi tadqiqi, turkiy davlatlarda boburshunoslik tarixi, tadriji va takomili, shuningdek, filologik aspektda amalga oshirilgan ilmiy manbalar xususida soʻz yuritilgan. Bundan tashqari, oʻzbek, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, qozoq, qirgʻiz olimlarining tadqiqotlari tavsif va tahlil etilib, turkiy boburshunoslik tarixi, uning takomil bosqichlari koʻrsatib berilgan.

Kalit soʻz: *Bobur, boburshunoslik, "Boburnoma", "Devon", "Mubayyin", "Aruz risolasi", "Xatti boburiy", tarjimashunoslik, turkiy til, feʼl.*

Kirish

Zahiriddin Muhammad Bobur shaxsi va uning asarlariga boʻlgan qiziqish kun sayin ortib, bugungi kunda ham bu borada izlanishlar qizgʻin davom ettirilmoqda. Ayni masala, nafaqat filologiya sohasining, balki boshqa fan tarmoqlarining ham tadqiqot ob'ektiga aylanib, bu borada dunyoning yuzlab ziyolilari minglab tadqiqotlarni amalga oshirishgan. Bular orasida, ayniqsa, filologik aspektdagi tadqiqotlarning oʻrni va ahamiyati kattadir. Bobur asarlariga bagʻishlangan ilmiy izlanishlar koʻlami shu qadar kengki, ularni oʻrganish, ayniqsa, qiyosiy planda tadqiq etish bugungi kun boburshunosligining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Tarixga nazar tashlasak, Bobur ijodiga boʻlgan munosabat, xususan, "Boburnoma" asarining ilmiy-tarixiy, gʻoyaviy-badiiy xususiyatlari va boshqa oʻziga xos jihatlari toʻgʻrisida tarixiy manbalarda zamondoshlarining koʻplab tazkira va bayoz risolalarida qayd etilganiga amin boʻlamiz. Masalan, ana shunday tarixiy asarlardan biri Abdurahmon Siyrat tomonidan sohibqiron Amir Temur va temuriylarga bagʻishlab yozilgan "Kanzul aʼzam" (Buyuk xazina)dir.

¹ *Shuhrat Hayitov* – filologiya fanlari boʻyicha falsafa doktori, OʻzMU dotsenti.

E-pochta: shuhrathayitov84@mail.ru

Iqtibos uchun: *Hayitov, Sh.* Bobur asarlarining filologik tadqiqi. *Oʻzbekiston: til va madaniyat. Lingvistika.* 2024-2: 6-18.

Mazkur asarda Amir Temur tavalludidan boshlab to uning vafotiga qadar bo'lgan ma'lumotlar bilan birgalikda Boburning Hindistonni zabt etishigacha bo'lgan voqealiklar tilga olingan. Diqqatga molik tomoni, unda "Boburnoma" va uning o'ziga xos xususiyatlari haqida ham mulohazalar bildirilgan.

Umuman olganda, bu qomusiy asar haqidagi mulohazalarni boburshunos olim, akademik Botirxon Valixo'jaev ta'biri bilan aytganda, "...Boburning o'zi ("Boburnoma"da) boshlab bergan. Shundan so'ng Movarounnahr, Afg'oniston va Hindistonda yozilgan tazkira va tarixiy asarlarda Bobur haqida ma'lumot berish, uning shaxsi va ijodiga bo'lgan qiziqish boshlangan. Gulbadanbegimning "Humoyunnoma", Muhammad Haydar Dug'latning "Tarixi Rashidiy" asarlarida bu ulug' siymo bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan (Valixo'jaev 2002, 217).

Shuni alohida qayd etish lozimki, Boburga dunyoviy shuhrat keltirgan asari shubhasiz, uning "Boburnoma"sidir. Asar XVI asrdayoq Abdurahmon ibn Bayramxon tarafidan fors tiliga tarjima qilingan. Shundan so'ng dunyoning boshqa mamlakatlarda ham Boburning ilmiy-ijodiy faoliyatiga qiziqish oshib borgan. Ayniqsa, XVIII asrga kelib Yevropada "Boburnoma"ga bo'lgan qiziqish bu o'lkada boburshunoslik sohasining vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Elfinston, Vitsin, J.Leyden, U.Erskin kabi tarjimon va manbashunos olimlar tomonidan "Boburnoma"ning qo'lyozma nusxalari topilib o'rganila boshlangan. Asar shu tariqa ingliz, fransuz, nemis, golland, rus, fors, usmonli turk, ozarbayjon, arab, yapon, qozoq va boshqa tillarga tarjima qilingan. Birgina Angliyaning o'zida o'nga yaqin nashrlari amalga oshirilgan (Abdullaev 2007, 44).

Shunday qilib, Bobur asarlarini filologik planda ilmiy tadqiq etish jarayoni dastlab, Angliya, Fransiya va Germaniyada boshlangan bo'lib, bu o'lkalarda asar tarjimalaridan tashqari, uni o'qish va tushunish uchun masus lug'at, sharh va izohlar tayyorlangan. Bu an'ana esa so'ngra turkiyxalqlar adabiyotiga ko'chgan. Qardosh xalqlar orasida XX asr boshlarida boshlangan bu jarayonni dastlab turkiyalik olimlar F.Ko'prulu, R.R.Arat, H.Boyirlar boshlab bergan. Xususan, turk olimi F.Kuprulu 1915 yilda Istanbulda nashr etiladigan "Milliy tadabbular" jurnalining turkum sonlarida Bobur haqida maqollalar e'lon qilgan. Olim shoir asarlari qo'lyozmalari haqida ma'lumotlar, ularning tavsifi, shuningdek, she'rlaridan ayrim namunalar berib borgan. "Boburnoma" haqida dastlabki izlanishlarni olib borgan. Turkiyalik yana bir tarixchi olim H.Boyir "Boburnoma"ga tayangan holda "Hindiston tarixi" asarini yozgan. Undan tashqari, asar

matni, ilmiy-tarixiy ahamiyat va o'ziga xos betakror uslubi haqida so'z yuritgan (Bayur 1987). R.R.Arat avvaliga Bobur haqida turli kichik ilmiy maqolalar, so'ngra, 1943 yilda "Boburnoma"ning turkiy xalqlar adabiyotida birinchi bo'lib ilmiy tarjima nashrini tayyorlagan (Arat 1943). Aytish mumkinki, bu tadqiqotlar keyinchalik nafaqat O'zbekiston boburshunosligi taraqqiyotida, balki boshqa ko'plab xorijiy mamlakatlar boburshunosligi rivojida o'ziga xos ilmiy manba vazifasini bajargan.

H.Boyir "Boburnoma"da bayon qilingan voqea-hodisalar mufassalligi, ob'ektivligi, ifodasining aniqligi va izchilligi bilan boshqa tarixiy asarlardan tubdan farq qiladi. Xususan, tarixiy manba sifatida o'sha davrning muhim kitoblaridan Mirxondning yetti jildidan iborat "Ravzatus-safo", shuningdek, Xondamirning "Habibus-siyar" va M.Haydarning "Tarixi Rashidiy" asarlaridan butun mazmuni bilan yuqori turishini e'tirof etadi. H.Boyirning "Boburnoma" asarining o'n sakkiz yillik uzilib qolgan voqeliklarini boshqa tarixiy manbalar orqali tiklash borasidagi ilmiy yutuqlari ham e'tirofga loyiqdir.

Bundan tashqari, F.Ko'prulu, R.R.Arat, H.Boyirning "Boburnoma" yuzasidan olib borgan tadqiqot ishlari turk adabiyotida keyinchalik har bir soha kesimida, masalan, tarix, adabiyot, folklorshunoslik, tilshunoslik, onamasltika, madaniyatshunoslik, tabobat, biologiya, ekologiya, zoologiya kabi o'nlab sohalarda ilmiy tadqiqotlarning yuzaga kelishi uchun ham turtki bo'ldi. Bu olimlar tadqiqotlari asosida yuzlab ilmiy maqolalar, yirik monografik asarlar, kitob va risolalar yozildi. Shunday qilib, XX asr boshlaridan boshlangan Turkiyada boburshunoslik ilmi 90-yillarga kelib yanada keng quloqch yoydi. Bu davrga kelib shoir ijodi yuzasidan o'nlab mavzularda nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Turkiy xalqlar adabiyotida Bobur asarlarini ko'p tomonlama o'rganish davri boshlandi. Jumladan, birgina Turkiyaning o'zida Mas'ud Shenning "Boburnoma"da Kobul va Hindiston bo'limlariga doir olib borgan doktorlik dissertatsiyasi (1993), keyinchalik Bobur maktublari haqidagi tadqiqoti (1997), Yu.Bilolning "Bobur devoni" yuzasidan amalga oshirgan ilmiy tadqiqoti (1995), Mehmet Turgutning "Boburnoma"da hayvonlar va ovchilik" deb nomlangan ilmiy monografiyasi (2008), Murad Yurdako'kning "Boburshoh asarlarida tibbiyotga oid qarashlar" (2010), Ataturk universiteti Adabiyot fakulteti doktoranti Husayn Baydemirning "Boburnoma"da folklorizm va etnografiya unsurlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqoti (2010) va yana o'nlab dissertatsiyalar yuzaga keldi. Bir so'z bilan aytganda, olib borilgan ko'plab dissertatsion tadqiqotlar natijasida

Bobur asarlari

- tilshunoslik
- adabiyot, she'riyat
- tarix;
- madaniyatshunoslik;
- siyosatshunoslik;
- etnografiya;
- sharqshunoslik;
- geografiya, toponimika, gidroografiya;
- shaharsozlik, arxitektura yodgorliklari;
- san'atshunoslik;
- xronika, tarixiy yilnoma;
- islomshunoslik;
- aniq fanlar;
- harbiy tarix;
- musulmon huquqi normalari bo'yicha huquqshunoslik;
- biologiya;
- zoologiya
- ekologiya va tabiatshunoslik;
- tibbiyot va xalq tabobati
- soliq

kabi zamonaviy ilm-fanning turli sohalari uchun muhim va keng qamrovli birlamchi manba hisoblanishi isbotlab berildi. Bobur asarlarining turli rakursda o'rganilishida o'zbek, qoraqalpoq, turk, ozarbayjon, turkman, qirg'iz va qazoq kabi turkiy millat olimlarining mehnatlari katta bo'ldi.

O'zbekistonda Bobur shaxsini elga tanitish, bu buyuk siymo asarlarini ilmiy tadqiq etish jarayonida esa jadidlarning xizmatlari katta bo'ldi. Bu ishga Sh.Rahimiy, A.Avloniy, A.Fitrat, Cho'lpon va A.Qodiriy kabi ma'rifatimiz fidoyilari o'zlarining katta hissalarini qo'shishdi. Xususan, Sh.Rahimiyning 1923 yilda "Bilim o'chog'i" jurnalida bosilgan "Zahiriddin Muhammad Bobur" maqolasi ushbu yo'nalishdagi ilk tadqiqotlar sirasiga kiradi. A.Avloniyning Afg'oniston xalq maorifi vaziri, so'ng sho'rolar ittifoqining Afg'onistondagi elchisi vazifasida xizmat qilgan davri voqealari aks etgan "Sayohatnoma" asarida Bog'i Boburni ziyorat qilgani va ulug' shoir haqidagi o'y-kechinmalari bayon etilgan. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarida "Boburnoma" asari eslab o'tilishi ham tasodif emas edi. Shuningdek, Cho'lpon she'riyatida Bobur lirikasining o'rni borligiga ham ko'plab misollar bor. Ayniqsa, A.Fitrat tomonidan 1928 yilda nashr ettirilgan "O'zbek adabiyoti namunalari" majmuasida Boburning 31 g'azali, 2

masnaviysi, 28 ruboiysi va “Boburnoma”dan parchalar kiritilganligi o’sha davr uchun katta tarixiy voqelik bo’lgan edi. Otajon Hoshimning ushbu kitobga yozgan so’zboshisida ham Bobur hayoti va ijodi haqida ko’p ma’lumotlar berib o’tilgan (Boltaboyev 2004, 127). Bulardan tashqari, O’zbekistonda qatag’on yillari, Bobur nomi va uning ijodiga munosabat yaxshi bo’lmagan zamonlarda “Литературная энциклопедия” (1937) kitobiga Olim Sharafiddinov va Sotti Husayn tomonidan “O’zbek adabiyoti” nomli maqolasining yozilishi va unda Bobur ijodiga oid eng muhim va xolis ilmiy baho berilganligi o’z davri uchun katta jasorat edi.

Shu tariqa xalqimizga “Boburnoma”ni tanitishda Fitrat tadqiqotlarining ahamiyati katta bo’ldi. U 1928 yilda “Boburnoma”dan ayrim parchalarni e’lon qilish orqali o’zbek o’quvchilariga bu bebaho asrni tanitdi (Boltaboyev 2004, 128). Fitratshunos olimlarimizning ta’kidlashicha, uning (Fitratning) yana o’ndan ortiq ilmiy asar va qo’llanmalarida Bobur tilga olinadi. Jumladan, “Adabiyot qoidalari. Adabiyot muallimlari ham havaslilar uchun qo’llanma” (1926) darsligida Bobur va uning ijodi haqida yangi davr o’zbek adabiyotshunosligida birinchi bo’lib ma’lumot berilgan. “O’zbek adabiyoti namunalari” (1-jild, 1928) majmuasida esa “Boburnoma”ning Hindiston qismi tabdil etilib, O’zbekistonda ilk marta nashr qilingan. “Adabiyot qoidalari” kitobida eng ko’p misol ham Navoiy va Bobur ijodidan keltirilgan. Fitrat, shuningdek, “Aruz haqida” (1935) risolasida turkiy aruzning xususiyatlarini tushuntirar ekan, Boburning ham aruz nazariyotchisi, ham aruzning go’zal vaznlarida she’r bita olgan hassos shoir ekanligini alohida e’tirof qilib o’tadi.

Shunday qilib, O’zbekistonda boburshunoslik ilmi o’tgan asrning 40-yillariga kelib yanada rivoj topdi. 1948 yili Saidjon Aliev “Zahiriddin Muhammad Boburning she’riy ijodiyoti” mavzusida, 1949 yili Sabohat Azimjonova “Umarshayx va Boburning Farg’ona ulusi” mavzusida, 1944 yili Moskvada P.I.Petrov “Boburnoma” tarixiy manba sifatida” mavzusida, 1954 yili G.F.Blagova “Характеристика грамматического строя (морфологии) староузбекского литературного языка конца XV века по “Бабурнаме” mavzusida nomzodlik dissertatsiyalarini yoqladi. Shundan so’ng o’zbek va boshqa turkiy respublikalar adabiyotida qator dissertatsiyalar ko’paya boshlaydi.

Fitratning Bobur asarlari, jumladan, “Boburnoma”ga doir tadqiqotlari keyinchalik turkiy xalqlar adabiyotidagi ko’plab ilmiy izlanishlar uchun manba vazifasini bajardi. O’zbek adabiyotida

shundan keyingi tadqiqotlar O.Sharafiddinov, S.Mirzayev, P.Shamsiyev, S.Azimjonova, A.Abdug'afurov, A.Qayumov, G.Assalom, S.Hasanov, H.Qutratullayev, Z.Mashrabov, A.A'zamov, S.Jalilov, N.Otajonov, O.Bo'riyev, V.Rahmonov, M.Xolbekov, H.Boltaboyev, H.Dadaboyev, A.Ibrohimov, Z.Xolmanova, keyinchalik Z.Teshaboyeva, X.Mirzayeva, Sh.Hayitov, D.Muhammadiyeva, M.Shorahmedova, E.Hazratqulova, B.Bo'ronova kabi o'nlab olimlar tomonidan amalga oshirildi.

Boburshunoslikrivojida P.Shamsiyev va S.Mirzayev tomonidan 1948-49 yillarda asarning ikki jild holidagi kirill yozuvidagi tabdili, undan avval, 1943-46 yillar R.Arat tomonidan amalga oshirilgan ikki jildli turkcha tarjimasi, shuningdek, sharqshunos M.Sal'e tomonidan rus tiliga qilingan nashrlarining ahamiyati katta bo'ldi. Bundan tashqari, 1959 yilda Aziz Qayumov va Sabohat Azimjonova tomonidan "Bobur lirikasi" deb nomlangan risolaning nashridan so'ng 1960 yilda "Boburnoma"ning navbatdagi ilmiy nashri chop etildi. Mazkur nashrlar dunyo yuzini ko'rishi bilan Bobur ijodini turli jihatdan tadqiq etish ishlari yanada kengaydi. Bu borada ham qator nomzodlik va doktorlik ishlari yoqlandi, risola va ilmiy maqolalar e'lon qilindi.

O'zbekistonda boburshunoslik ilmi taraqqiyoti istiqlol davriga kelib yanada yuksaldi. A.Qayumov, A.Abdug'afurov, S.Hasanov, H.Hasanov, V.Rahmonov, M.Kenjabek, Sh.Yorqin, E.Ochilov kabi olimlar tomonidan shoir asarlarining o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lgan ilmiy nashrlari chop etildi. Bundan tashqari, bu davrga kelib yurtimizda Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi tashkil etilib ulkan miqyosli ishlar amalga oshirildi. Bu davrga kelib Bobur qoldirgan tarixiy intellektual merosni o'rganish, targ'ib va tashviq qilish, saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish umumdavlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalardan biriga aylandi.

Bobur hayoti va ijodini o'rganish hamda keng targ'ib etish borasida, ayniqsa, o'tgan 2023 yil samarali yil bo'ldi. Yurtimiz va dunyo miqyosida qator tadbirlar tashkil etilib, boburshunoslikka oid ko'plab noshirlik ishlari bajarildi. O'zbek, rus va ingliz tillarida "Bobur ensiklopediyasi"ning to'ldirilgan uchinchi nashri yaratildi. Undan tashqari, "Bobur" kitob-albomi, Bobur asarlari lug'ati, shoir devonining mukammal nashrlari, "Boburnoma" asarining zamonaviy o'zbek va qoraqalpoq tillaridagi tabdili tayyorlandi. Shoir asarlari, jumladan, "Boburnoma" borasida yurtimiz va xorij olimlari tomonidan qator tadqiqotlar, tarjima va ilmiy noshirlik ishlari bajarildi. Asarning qozoqcha (2022) va italyancha (2023)

yangi tarjima nashrlari yuzaga keldi. Bobur fondi tashabbusi bilan Boburning to'la asarlar to'plami "Kulliyoti"ning nashrga tayyorlangani (2023) bu boradagi ishlar ko'lamini nechog'lik yuksak ekanligini ko'rsatadi.

O'tgan yili shoir tavalludining 540 yilligi munosabati bilan Andijon va Toshkentda o'tkazilgan xalqaro konferensiya materiallarida Bobur asarlarining o'ziga xos ahamiyati haqida ko'plab tadqiqotlar e'lon qilindi. Jumldan, 2023 yilning 25-26 sentabr kunlari Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida o'tkazilgan "Zahiriddin Muhammad Bobur merosining Sharq davlatchiligi va madaniyati rivojida tutgan o'rni" mavzusidagi uluslararo ilmiy-nazariy konferensiyada Italiya, Yaponiya, Rossiya, AQSh, Turkiya, Eron singari mamlakatlardan eng yetuk boburshunos olimlar, turli tashkilot va idoralar vakillari, tadqiqotchilar ishtirok etib, boburshunoslik sohasidagi so'nggi ilmiy yangiliklari bilan o'rtoqlashdi.

Shuni ham qayd etish kerakki, turkiy xalqlar adabiyotida Bobur asarlarining tarjima nashrlaridan tashqari turli yillarda shoir asarlari, xususan, "Boburnoma"ning sohalar rivoji, fanlar taraqqiyotidagi o'rni borasida ham qator ilmiy asarlar, dissertatsiya va risolalar yozildi. Bundan tashqari, turli internet saytlarida ilmiy-ommabop maqolalar e'lon qilindi. Jumladan, Mukadder Guniriy "Boburnoma"ning asosiy qoidalari" (1994) Mehmet Turgut "Boburnoma"da hayvonlar va ovchilik" (2008), Murat Yurdako'k "Boburning tibbiyotga oid qarashlari" asarini (2008), Husayn Baydemir "Boburnoma"da folklorizm va etnografik unsurlar" (2010), Vohid Turk "Bobur devoni"ning til xususiyatlari" (2012), Ne'mat Jeylan "Bobur asarlarida qo'shma so'zlar" (2007), Erjan Akyol "Bobur va "Boburnoma" xususida" (2014), Arzu Yekilmaz "Boburnoma"da fe'l so'z turkumlari tadqiqiga doir" (2014), Hamza Yalchinqoya "Bobur xotirotidagi tarxiiy shaxslar" (2013), Duygu Koja "Boburnoma"ning til xususiyatlari va lug'ati" (2013), Islom Jemeney, Abdulla Askariy (Qozog'iston) "Boburning jahon madaniyatiga qo'shgan hissi" (2011) kabi ko'plab ilmiy maqola, monografiya va dissertatsiyalar yozishdi.

Bobur asarlarining aynan til xususiyatlariga doir H.Nazarova, H.Dadaboyev, F.Is'hoqov, A.Ibrohimov, Z.Xolmanova, D.Muhammadiyeva kabi olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqotlarning ham ahamiyati katta. B.Yujel, T.Seyhan, A.Bilkan kabi turkiyalik olimlar tomonidan "Bobur devoni", "Mubayyin" va "Risolai volidiya" asari tarjimasi va ularning til xususiyatlariga qaratilgan

fundamental tadqiqotlarning ham alohida o'ringa egaligini qayd etish lozim. Ko'rinib turibdiki, turkiy xalqlar tarixi, madaniyati va adabiyoti uchun muhim bo'lgan ulug' shaxs va uning asarlari haqida shu paytga qadar juda ko'p ishlar qilingan. Ayniqsa, "Boburnoma" haqida minglab tadqiqotlar olib borilgan. Bobur asarlarining g'oyaviy-badiiy ta'siri nafaqat Markaziy Osiyo, balki evropada yashovchi turkiyzabon xalqlar ijodida ham o'z ifodasini topib kelmoqda. Turkiyshunos olimlarning fikricha, XVI asrning oxirgi choragidan boshlangan bu jarayon turk adabiyotining lirik va liro-epik taraqqiyoti uchun namuna vazifasini bajargan hodisadir.

Boburshoh o'z asarlarida ishlatgan so'z boyligi uning ona tilga bo'lgan yuksak bilimidan dalolatdir. "Aruz risolasi" va "Boburnoma"da bergan ma'lumotlariga asoslanib, turkiy tilning turli jihatlarini, xususan, onomastika, etimologiya, ko'p ma'nolilik, tillararo sinonimiya, tovush o'zgarishlari, tovush hodisalari, alifbo, imlo qoidalari, sintaksis, qurilish va uslubni chuqur bilganligini ko'ramiz.

Bobur asarlari, xususan, uning "Boburnoma" asarini filologik aspektda chuqur o'rgangan tilshunos olimlardan biri Memor Sinan go'zal san'atlar universiteti professori, filologiya fanlari doktori T.O.Seyhandir. Olima "Mubayyin" asarini turk tiliga tarjima qilish borabarida Boburning boshqa asarlari "Boburnoma", "Devon", "Aruz Risolasi", "Risolayi volidiya" va "Xatti Boburiy" haqida ham ko'plab ilmiy fikrlar aytadi. Olima "Boburshohning siyosiy-madaniy faoliyatida turk tili va adabiyotining o'rni" nomli maqolasida ulug' mutafakkirning davlat boshqaruvida nimalarga ko'proq e'tibor bergani xususida qimmatli ma'lumotlarni keltirib o'tadi. Bobur o'z saltanatining bardavomligini ta'minlash uchun qalam sehridan qanday ustalik bilan foydalanganini, qalamni vatanga aylantirib, uning geografiyasini qanday kengaytirganini, shuningdek, uning me'morchiligi, demografik tuzilishi, turkiy tili va tarixi bilan Hindistonda o'z izini qoldirib, davlat boshqaruvida amalga oshirgan ko'plab madaniy-siyosiy masalalari haqida fikr yuritadi.

T.Seyhanning qayd etishicha, XVI asr dunyoda turk asri sifatida tanilgan. Ushbu asrda munosib iz qoldirgan turk etakchilaridan biri shubhasiz Boburshoh bo'lgan. U 12 yoshida taxtdan ayrilgan bo'lsa ham, o'z bilimi va fe'l-atvori jihatidan o'zining yuksak g'oyalaridan hech qachon voz kechmagan. Bobur o'zini har doim markazga qo'ygan va yuqori maqsadni o'zidan talab qila olgan. T.Seyhan Boburning turkiy tilni chuqur bilishi, shuningdek, xalqlarga xos milliy-madaniy xususiyatni yaxshi tushunishi va izchil tushuntirib bera olishiga ko'ra, buyuk alloma M.Koshg'ariy bilan mengzaydi. Bu ikki mutafakkir

XI va XIV asrlardagi turkiy til imkoniyatlarini, turk geografiyasini, xalqlarning madaniy xususiyatlari, urf-odat, an'ana va qadriyatlarini teran anglab bayon etgan.

Turk olimlari tomonidan "Boburnoma" tadqiqoti borasida birgina 2010-2023 yillar oralig'ida 28 ta tadqiqot amalga oshirilgan bo'lib, shundan 5 tasi Bobur shaxsiyatiga, 23 tasi esa aynan "Boburnoma" asariga oid ilmiy maqolalar hisoblanadi. Jurnallarda chop etilgan ushbu maqolalar orqali olimlar Boburshoh va uning qomusiy asari "Boburnoma"ga baho berishgan. Shuningdek, ularning ayrimlarida shoir hayoti, uning davlat boshqaruvidagi o'rni, siyosiy va ma'muriy islohotlari tilga olinsa, ayrim maqolalarda asosan asarlari tili, adabiyotga munosabatiga diqqat qaratiladi.

Chabash Eǵilmezning Otaturk universiteti turkshunoslik instituti jurnalida bosilgan "Boburnoma"da ifodalangan marosimlar" (2012) maqolasida XV-XVI asrlarda Farg'ona, Kobul va Dehli viloyatlarida kechgan madaniy hayotning bir qismining hukmdor nigohi bilan tasvirlanishi o'rganilsa, Ekram Gulning (2014) "Turk tili tadqiqoti yilnomasi"da (2014) e'lon qilingan "Baburnama"da harbiy terminlar" nomli tadqiqotida turkiy davlatchilikning tarixiy ildizlari, bu tizim keyingi davrlarda boshqa xalqlar va madaniyatlarga o'tgani, Bobur va boburiylarning harbiy taktikasi hamda bu sohaga oid terminologiya haqida so'z yuritadi. "Boburnoma" harbiy atamalarining o'rganilishida ham muhim manba ekanligini ta'kidlaydi.

Yana bir turk olimi Ezgi Sirtining "Boburnoma"dagi asosiy fe'llar haqida qaydlar" nomli maqolasida (2018) bu qomusiy asar turkologiya sohasining eng noyob durdonalaridan biri ekanligi qayd etiladi. Turkiy tillardagi o'tmishdan to hozirgi kungacha bo'lgan asosiy so'zlarni aniqlashda, ayniqsa, so'z turkumlarini o'rganishda bu asarning o'rni nihoyatda katta ekanligini misollar asosida keltiradi.

Merve Eraslan hamda Galip Gunerning "Boburnoma"dagi fe'llarning tuzilishi va mazmuni" (2021) nomli maqolasi ham tilshunoslik sohasida muhim tadqiqotlardandir. Unda "Boburnoma"da ishlatilgan fe'llar turkumlarga bo'lib o'rganiladi. 1) aqliy fe'llar; ular yana uch guruhga bo'lnadi: idrok fe'llari, bilish fe'llari va hissiyot fe'llari. Tadqiqotda asardan keltirilgan fe'l so'z turkumiga oid barcha leksik birliklarning umumiy statistikasi ko'rsatib o'tiladi. Unga ko'ra, asarda 227 ta aqliy fe'llar, 81 ta idrok fe'llari, jumladan, shundan, 11 tasi ko'z fe'llari, 5 tasi quloq fe'llari, 6 tasi tatib ko'rish fe'llari, 54 tasi aloqa fe'llari va 5 tasi muvozanat fe'llari ekanligi ko'rsatiladi. Undan tashqari, 4 ta tushunish fe'li, 1 ta tadqiqot fe'li, 9 ta yutuq fe'li, 9 ta xotira fe'li, 6 ta tahlil fe'li, 1 ta fikrlash fe'li, 30 ta aloqa fe'li, 2 ta

e'tiqod fe'li, 74 ta bilish fe'li. 20 ta iroda, 4 ta qaror-kelishuv, 1 ta sabr fe'li borligi aytiladi. Asarda, shuningdek, 72 ta emotsional, ulardan 7 tasi lahzali reaksiyalarni ifodalovchi emotsional fe'llar va 65 tasi vaqt o'tishi bilan rivojlanadigan hissiy fe'llar ekanligi qayd etiladi. Boburshunoslikka oid o'zbek olimi Sh.Sh.Rustamxo'jayev tomonidan tuzilgan bibliografik nashrlarida (Rustamxo'jayev, 2023) yuqorida keltirilgan maqola, tezis, ilmiy monografiya va dissertatsiyalar ko'rsatkichi berilgan.

Turkiy xalqlar adabiyotida Bobur asarlarining filologik tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar haqida so'z borganda, shuningdek, S.Boltaboyevning "Boburnoma"da chun bog'langan polatining foydalanishi va funksiyalari" (2023), S.Akgul "Boburnoma"ning til xususiyatlariga oid tadqiqoti (2023), Zeynep Nergisning "Bobur tili haqidagi" tadqiqoti, Emre Kundakchining "Boburnoma"ning Haydarobod nusxasi asosida o'g'uz va sharqiy turkiy tillarning bir-biriga o'zaro ta'siri masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarining ham boburshunoslikda o'ziga xos o'rni borligini qayt etish lozim.

Ma'lumotlarga ko'ra, shu kunga qadar dunyoda o'n miningdan ortiq Bobur haqida ilmiy tadqiqotlar bajarilgan. Shulardan turkiy xalqlar adabiyotida olib borilgan izlanishlarning ko'lami kengdir. Nazarimizda, ularni kelgusida xronologik tartib asosida jamlab o'rganish xorij boburshunoslikning tadrijiy takomil bosqichlarini aniqlashda va bu borada ayrim chalkash va yechilmay kelayotgan masalalarga aniqlik kiritishda muhim hisoblanadi. Boburshunoslikka oid ilmiy tadqiqotlarni o'rganish yana qo'yidagi ilmiy-nazariy masalalarning yechimida muhim hisoblanadi.

1. Bobur asarlari matni, ularning qo'lozma nusxalari, ular qayerda saqlanayotgani, kimlar, qachon va qanday o'rgangani, olib borilgan tadqiqotlarning o'xshash va farqli xususiyatlarini aniqlash borasida aniq ilmiy-nazariy xulosalar chiqarishda.

2. Bobur va uning asarlarining ilm-fan taraqqiyotidagi o'rnini belgilash, shu orqali Boburning dunyo ilm fani rivojiga qo'shgan hissasini aniq misollarda ko'rsatish, qanday fanlar taraqqiyotiga hissa qo'shgani aniqlash, shuningdek, asarlari tili, ularining badiiy hamda ilmiy-nazariy jihatlariga oid fundamental tadqiqotlarning yaratilishida asosiy o'rin tutadi.

3. Turkiy til imkoniyatlarini ko'rsatish, hozirgi zamon adabiy tildagi mavjud leksik birliglar bilan qiyoslash, qardosh halqlar milliy xususiyatlari joy nomlari, atamalar va to'rkiy so'zlar imkoniyatini belgilashda o'rin tutadi.

Adabiyotlar

- “Заҳириддин Муҳаммад Бобур меросининг Шарқ давлатчилиги ва маданияти ривожда тутган ўрни” мавзусидаги улуслараро илмий-назарий конференси матераиллар тўплами(2023). – Тошкент.
